



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



ORIENTAL
UNIVERSITETI

ORIENTAL UNIVERSITETI

Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

70410901 – Biznesni boshqarish (Master of Business Administration – MBA)
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**70410901 – Biznesni boshqarish (Master of Business
Administration – MBA)**

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

ORIENTAL UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: SAIDOV FARRUX FAXRIDDINOVICH

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti**

fan doktori (DSc)



A'zo: CARLOS GARCIA CAVALEIRO MACHADO

Accreditation, Certification and Quality Assurance Institute

fan doktori (DSc)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260078
Xulosa raqami	952
Xulosa sanasi	07.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"ORIENTAL UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Noroztepa ko'chasi, 52-uy. Guvohnoma: MAS № 0000305, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Biznesni boshqarish (Master of Business Administration – MBA)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70410901
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000305, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70410901 – Biznesni boshqarish (Master of Business Administration – MBA)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70410901 – Master of Business Administration (MBA)
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70410901 – Управление бизнесом (Master of Business Administration – MBA)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Iqtisodchi, pedagog-tadqiqotchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Noroztepa ko'chasi, 52-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida "Biznesni boshqarish: Master of Business Administration (MBA)" magistratura ta'lim dasturi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish "Biznes va boshqaruv" kafedrasidan amalga oshirilishi, kafedraning boshqaruv tizimi O'zbekiston Respublikasining namunaviy shtat me'yorlari (2017-yildagi 2859-son ro'yxatdan o'tkazilgan hujjat) talablari asosida shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturini amalga oshirishda 5 nafar professor, 2 nafar professor vazifasini bajaruvchi, 2 nafar dotsent, 7 nafar dotsent vazifasini bajaruvchi hamda 5 nafar katta o'qituvchi ishtirok etadi. Boshqaruv tuzilmasining amaldagi shtat me'yorlariga muvofiq tashkil etilgani MBA darajasidagi ta'lim dasturini tizimli boshqarish va samarali amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratadi. Ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari hamda ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy jarayonlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida "Biznesni boshqarish: Master of Business Administration (MBA)" magistratura ta'lim dasturi Davlat ta'lim standarti va malaka talablari asosida ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi modul tizimi asosida shakllantirilgan bo'lib, zamonaviy biznes boshqaruvi kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'quv-metodik ta'minot to'liq ishlab chiqilgan, fanlar mazmuni nazariy bilimlar bilan amaliy boshqaruv ko'nikmalarining uzviy uyg'unligini ta'minlaydi. Modul tizimining

qo'llanilishi tinglovchilarga individual ta'lim traektoriyasini shakllantirish va o'quv jarayonini moslashuvchan tashkil etish imkonini beradi, bu esa xalqaro MBA dasturlarining asosiy yondashuvlariga mos keladi. Dastur yakunida bitiruvchilarga "Iqtisodchi, pedagog-tadqiqotchi" kvalifikatsiyasi beriladi. Ta'lim dasturi mazmuni ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida "Biznesni boshqarish: Master of Business Administration (MBA)" magistratura ta'lim dasturi bo'yicha o'quv jarayoni tasdiqlangan o'quv reja asosida ma'ruza, amaliy mashg'ulot, keys-stadi va mustaqil tadqiqot shakllarida tashkil etilgani aniqlandi. O'quv jarayonida zamonaviy interfaol o'qitish metodlaridan keng foydalaniladi, baholash reyting tizimi asosida joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllari orqali shaffof mezonlar asosida amalga oshiriladi. Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish yakuniy davlat attestatsiyasining asosiy shakli sifatida belgilangan. MBA dasturi uchun keys-stadi metodining keng qo'llanilishi tinglovchilarda strategik fikrlash, tahliliy yondashuv hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish kompetensiyalarini real biznes vaziyatlari asosida shakllantirishga xizmat qiladi. O'quv jarayoni va baholash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida "Biznesni boshqarish: Master of Business Administration (MBA)" magistratura dasturi tinglovchilarining ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyatini tashkil etish bo'yicha samarali tizim shakllantirilgani aniqlandi. Tinglovchilar ilmiy konferensiyalar, seminarlar va davra suhbatlarida faol ishtirok etadi, ilmiy maqolalar tayyorlaydi hamda amaliyot davrida real biznes loyihalarida qatnashish imkoniyatiga ega. Magistrlik dissertatsiyasi amaliy boshqaruv muammolarini hal etishga qaratilgan ilmiy tadqiqot asosida bajarilishi tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Qabul jarayonlari shaffof tashkil etilgan bo'lib, tinglovchilarning akademik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ilmiy salohiyatini rivojlantirish bo'yicha zarur mexanizmlar yo'lga qo'yilgan. Talabalar faoliyatini

tashkil etish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida "Biznesni boshqarish: Master of Business Administration (MBA)" magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur inson resurslari salohiyati shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim jarayonida 5 nafar professor, 2 nafar professor vazifasini bajaruvchi, 2 nafar dotsent hamda 7 nafar dotsent vazifasini bajaruvchi faoliyat yuritadi, asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushi esa belgilangan 76 foizlik me'yor talabiga muvofiq ta'minlangan. Professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati va kasbiy malakasi ta'lim dasturining sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydi, ular muntazam ravishda malaka oshirish va kasbiy rivojlanish jarayonlarida ishtirok etadi. Boshqaruv, texnik va o'quv-yordamchi xodimlar tarkibi ham amaldagi namunaviy shtat me'yorlari asosida shakllantirilgan. MBA dasturi uchun professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati bilan bir qatorda amaliy boshqaruv tajribasiga ega bo'lishi tinglovchilarda zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida moddiy-texnik ta'minot yo'nalishidagi mezonlarning asosiy qismi muvofiq, 6.4-mezon esa qisman muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida "Biznesni boshqarish: Master of Business Administration (MBA)" magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur o'quv xonalari zamonaviy kompyuter texnikasi, multimedia vositalari va internet tarmog'i bilan ta'minlangani aniqlandi. Keys-stadi va amaliy mashg'ulotlar uchun maxsus jihozlangan auditoriyalar, axborot-resurs markazi, elektron kutubxona hamda xalqaro ilmiy va axborot ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan bo'lib, bu tinglovchilarning ilmiy-tahliliy salohiyatini rivojlantirish va zamonaviy boshqaruv amaliyotlarini o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha ayrim kamchiliklar aniqlanganligi sababli 6.4-mezon qisman muvofiq deb topildi. Mazkur yo'nalishda

inklyuziv ta'lim infratuzilmasini amaldagi talablar darajasiga yetkazish tavsiya etiladi. Umuman olganda, moddiy-texnik ta'minot tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallari hamda AKT vositalaridan foydalanish imkoniyati (6.4-mezon) qisman muvofiq deb baholandi.
- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Xalqaro ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatini kengaytirish tavsiya etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun binolar va jihozlarni moslashtirish, maxsus o'quv materiallarini yaratish.
- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Xalqaro ma'lumotlar bazalari va biznes-keys resurslariga kirishni kengaytirish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning amaliy boshqaruv tajribasini oshirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Oriental universiteti" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 70410901 – Biznesni boshqarish (Master of Business Administration – MBA) magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, magistrantlar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturi bo'yicha o'quv jarayonini "Biznes va boshqaruv" kafedrasi tashkil etishi, boshqaruv tizimi amaldagi namunaviy shtat me'yorlari asosida shakllantirilgani hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi Davlat ta'lim standarti va malaka talablari asosida modul tizimida ishlab chiqilgan bo'lib, zamonaviy biznes boshqaruvi kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'quv jarayoni

ma'ruza, amaliy mashg'ulot, keys-stadi va mustaqil tadqiqot shakllarida tashkil etilib, yakuniy davlat attestatsiyasi magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish orqali amalga oshiriladi. Ta'lim dasturini amalga oshirishda 5 nafar professor, 2 nafar professor vazifasini bajaruvchi, 2 nafar dotsent hamda 7 nafar dotsent vazifasini bajaruvchi ishtirok etadi, asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar ulushi belgilangan 76 foizlik me'yor talabiga muvofiq ta'minlangan. Zamonaviy o'quv auditoriyalari, axborot-resurs markazi, elektron kutubxona hamda xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyati ta'lim jarayonining sifatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Baholash yakunlariga ko'ra, tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, magistrantlar faoliyati hamda inson resurslari yo'nalishlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi, moddiy-texnik ta'minot yo'nalishida esa inklyuziv ta'lim sharoitlariga oid 6.4-mezon qisman muvofiq deb baholandi. Aniqlangan kamchiliklar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi hamda inklyuziv ta'lim infratuzilmasini yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 70410901 – Biznesni boshqarish (Master of Business Administration – MBA) magistratura ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

